Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu salbiy oqibatlarning ta'sirini kamaytirish va kelgusida bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatda respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holatining yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi qo'llaniladigan qishloq xo'jaligi texnologiyalarining mukammallik darajasi va intensivlik darajasiga bog'liq bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish rentabelligining maqbul darajasi, balki tuproq unumdorligini oshirishni ham ta'minlashi lozim bo'ladi Merkulova, (2025). Merkulova va Vyazov (2015) qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ham qiymat, ham tabiiy ko'rsatkichlardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydilar. Mazkur mualliflar asosiy ko'rsatkichlarga yerning rentabelligi, yer sig'imi va yer qaytimi kabi ko'rsatkichlarni kiritadilar. Ular ushbu ro'yxatni tarmoq va faoliyat turi bo'yicha hisoblangan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi bilan to'ldiradilar. Shuningdek, ular yerni shudgorlash darajasi, hosildorlik, o'g'itlash va muayyan ekin turini bir gektarga ekishda ozuqa moddalari olish kabi ko'rsatkichlarning muhimligini tan oladilar. Joriy va taqqoslanadigan narxlarda yer maydoni birligiga tovar mahsulotlari ishlab chiqarish Xanbaev va Daibova (2016) tomonidan yerdan foydalanish iqtisodiy samaradorligining asosiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida baholanadi

O'tgan qisqa davrda sug'oriladigan va lalmi yerlar, tog' va tog'oldi hamda cho'l-yaylov hududlarining tuproq unumdorligini oshirish, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Qolaversa, zamonaviy usullar asosida mamlakat oziq-ovqat ta'minoti barqarorligiga erishish uchun yangi serhosil qishloq xo'jaligi ekinlari, ularning birlamchi urug'chiligini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligida suv resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, tabiiy tizimlarda ekologik muvozanat va bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Toza va sog'lom suv ekotizimlarini saqlash ularning ifloslantiruvchi moddalarni mustaqil ravishda qayta ishlash va turli xil suv organizmlarining hayotini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy o'g'itlar va pestisidlar, agar ular to'g'ri qo'llanilmasa, suv resurslarini ifloslantirishi mumkin. Atrof-muhit omillarini hisobga olish va suv resurslarini asrab-avaylash suvning kimyoviy birikmalar bilan ifloslanish xavfini kamaytirishga, sanoat va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun zarur bo'lgan suv sifatini oshirishga yordam beradi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming km ga yoki 46 foizga yetkazish, shuningdek, melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan hududlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Keyingi yillarda yurtimizda ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki suv manbalari O'zbekistondagi ko'plab ekotizimlar, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlari uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi hamda ekoturizmni saqlash va rivojlantirish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning yerdan foydalanish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan hukumat dasturlari va yo‘l xaritalari tashkil etadi.

Tadqiqot ishining uslubiyoti sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tizimli-funksional va dialektik o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq qilishda namoyon bo‘ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagicha taklif etilgan:

agrosanoat majmui sohasida band bo‘lgan hududlardan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan;

agrosanoat majmui sohasida band bo‘lgan hududlardan foydalanishni boshqarishning uslubiy yondashuvlari belgilangan;

bo‘sh turgan hududlarni biznes aylanmasiga jalb qilish vositalari taklif etilgan;

optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui qishloq xo‘jaligini raqamli o‘zgartirish sharoitida agroinnovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha takliflar bilan to‘ldirilgan.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini tartibga solish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini rag‘batlantirish borasida davlatning islohotchilik roli oshib borayotgan bo‘lsa-da, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi hali to‘liq yechimini topmagan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lgan yerlardan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib ketishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham yetarli darajada emas.

Umuman olganda, agrosanoat tizimida suv resurslarini saqlash, ekologik omillarni hisobga olish fermerlar va qishloq xo‘jaligi korxonalarining jamiyat oldidagi mas’uliyati va burchidir. Zero, bu oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va uzoq muddatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi - ishlab chiqarishning barqaror ishlashini ta’minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste’moli 55-70 foizni tashkil etmoqda. Chakana savdoda oziq-ovqat mahsulotlari importi ulushi 40 foizdan ziyodni tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jaligini erkin bozor iqtisodiyoti talablari darajasida barqaror rivojlantirish uchun xo‘jalik yuritishning turli mulkchilik shakllari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlar maydoni va sifati, moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or texnologiyalar va ulardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari, mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalar bo‘yicha davlat siyosati, qishloqda servisni rivojlantirish, xarajatlarni tejash, mahsulot va xizmatlar baholarini shakllantirish hamda qishloq xo‘jaligi korxonalari daromadlarini ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Agrar islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor shakllariga o‘tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog‘i oshdi.

Mamlakatda yiliga 20 million tonna meva-sabzavot yetishtiriladi, biroq ularni sanoat usulida qayta ishlash darajasi atigi 15 foizni tashkil etadi, shundan 7-8 foizi eksport qilinmoqda. Infratuzilma yetarli emasligi tufayli yig‘ishtirish va saqlash jarayonida mahsulotlarning 30 foizi yo‘qotilmoqda. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, mahsulotlarni chuqur qayta ishlashni kengaytirish orqali oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish va eksport hajmini oshirish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatda 31 ta agrologistika markazi va 1 500 ta sovutkich ombori mavjud bo‘lib, ularda jami yetishtiriladigan meva-sabzavotning atigi 4,5 foizini saqlash mumkin - bu juda kam. Masalan, meva-sabzavotning 65 foizi, go‘sht va sut mahsulotlarining 93-95 foizi dehqon xo‘jaliklari va tomorqalarda yetishtirilsa-da, qayta ishlovchi korxonalar o‘z quvvatlarining 50-60 foizida ishlamoqda. O‘tgan yili meva-sabzavotning 19 foizi, go‘sht va sut mahsulotlarining esa 16 foizigina sanoat darajasida qayta ishlangan.

Odatda uzum, qovun, tarvuz, qovoq va anor urug‘i tashlab yuboriladi. Xorijda esa bu urug‘lar qayta ishlanib, qimmatbaho oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Masalan, bir kilogramm tarvuz urug‘i yog‘i jahon bozorida 28 dollar, anor urug‘i yog‘i esa 350 dollar turadi. O‘zbekistonda ushbu mahsulotlarni yig‘ib olish va qayta ishlash yo‘lga qo‘yilsa, yiliga 250 million dollarlik eksport salohiyati yaratilishi mumkin.

Qaror bilan 2019-2022-yillarda umumiy qiymati 8 trln 471 mlrd so‘m bo‘lgan 243 ta loyiha amalga oshirilishi va 9 544 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan. Bugungi kun holatiga ko‘ra, umumiy qiymati 459,3 mlrd so‘mlik 42 ta loyiha ishga tushirilib, 958 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. So‘nggi uch yilda tashqi

bozorga yo‘naltirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi uch baravarga oshdi. Mamlakatimiz dunyoning 22 davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda (1-rasm).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonalarida olib borilayotgan ishlardan asosiy maqsad - respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘z vaqtida yig‘ib-terib, nobud qilmasdan saqlash, ularni qayta ishlab, aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Buning uchun yetakchi davlatlar texnologiya va texnikalari joriy etilgan, ya’ni uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlangan korxonalar barpo etilmoqda. Yangi korxona va sexlarni qurish bilan bir qatorda, mavjud korxonalarni yangi texnologiyalar bilan rekonstruksiya qilish ishlari ham amalga oshirilmoqda.




1-rasm. 2020-yil yanvar-mart oylarida qishloq va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish

Qayta ishlash yoki konservalashning asosiy maqsadi - keng ma’noda sabzavot va mevalarni sof holda saqlashdan farqli ravishda ularni tinch, ya’ni jonsiz holatda uzoq muddat saqlashni hamda qo‘shimcha va murakkab pazandalik ishlovisiz oziq-ovqat sifatida foydalanish imkonini yaratishni ko‘zda tutadi. Konservalash ayniqsa rezavor, danakli mevalar, mevalik va bargli sabzavotlarni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu yo‘l bilan aholini yil davomida uzluksiz vitaminlar va boshqa foydali moddalarga boy mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini beradi.

Ma’lumki, deyarli barcha sabzavot va mevalar tez buziluvchan mahsulotlar turiga kiradi. Shu sababli ularning oziq-ovqat qiymatini va organoleptik sifatlarini saqlab qolish uchun shunday texnologik qayta ishlash usulini tanlash zarurki, tayyor mahsulot oddiy yoki qo‘shimcha sharoit yaratilgan omborlarda uzoq muddat saqlanish imkoniga ega bo‘lsin.

Mahsulotlarni sof holda saqlash va ularni konservalash - bir-birini to‘ldiruvchi hamda umumiy maqsadga xizmat qiluvchi jarayonlar bo‘lib, aholini yil davomida meva-sabzavot mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashning muhim vositalaridir. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash asosan agrosanoat korxonalarida keng ko‘lamda amalga oshiriladi. O‘rta va kichik quvvatdagi korxonalar esa hududlardagi sanoat va kooperatsiya tizimlari tarkibida

faoliyat yuritadi. Xo'jaliklarning joylashuvi va faoliyat yo'nalishiga qarab ularda turli qayta ishlash korxonalarini tashkil etish mumkin (2-rasm).




2-rasm. Xo'jaliklarning joylashuvi va faoliyat yo'nalishi

Meva-sabzavot ishlab chiqarishida konservalashning quyidagi usullari keng joriy etilmoqda: quritish, tuzlash, sirkalash va jadal muzlatish. Kelajakda rivojlantirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar - tuzlash shoxobchalari, meva-sabzavot kompotlari ishlab chiqaradigan sexlar, murabbo va jem ishlab chiqarish, qandolatchilik sexlari, muzlatish uskunalari, sabzavot va mevalarni quritish sexlari hamda konservalash korxonalaridir.

Qayta ishlash va konservalash meva-sabzavotlarda ro'y beradigan biokimyoviy jarayonlarni to'xtatishga asoslanadi. Bu jarayon fitopatogen mikroflorani kamaytirish va mahsulotni tashqi muhitdan - havo, yorug'lik va boshqa ta'sirlardan himoyalash orqali amalga oshiriladi.

Konservalash usullari fizik, mikrobiologik va kimyoviy turlarga bo'linadi.

Fizik usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Issiqlik bilan sterilizatsiya qilish - konservalashning asosiy usuli bo'lib, sirkalash (marinovka) jarayoni ham ushbu turga kiradi.

✓ Qand va tuzning yuqori konsentratsiyasi hisobiga osmotik bosimni oshirish, ya'ni mikroorganizmlarning hayot faoliyatini to'xtatish.

✓ Past salbiy haroratda jadal muzlatish orqali sterilizatsiya qilish.

✓ Nurlantirib sterilizatsiya qilish (ultrabinafsha, yuqori to'lqinli yoki radioaktiv nurlar yordamida).

✓ Filtrlash orqali sterilizatsiya qilish, bunda maxsus filtrlardan o'tkazilgan sharbat mikroorganizmlar sporalaridan tozalanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari orqali kredit tizimidan foydalanish, hosilni sug'urtalash va boshqa qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq qishloq xo'jaligining barqaror va jadal rivoji hali to'liq ta'minlanmagan. Ushbu muammoni hal etish innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini tatbiq etish orqali mumkin. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi hamda agrosanoat majmuasi mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Bu talablarni qondirish uchun "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega [2].

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yer davlat mulki hisoblanadi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. Yerga egalik qilish bilan bog'liq munosabatlarning rivojlanishi natijasida mamlakatda xo'jalik yuritishning turli shakllari shakllandi. Subyektlarning ko'pligi tufayli ularning iqtisodiy manfaatlari va maqsadlari ham turlicha. Shu bilan birga, ular uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud: mulk ob'yektlaridan oqilona foydalanish, ularni rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga jadal tatbiq etish.

Davlat mulkining mavjudligi iqtisodiyotdagi bozor nomukammalliklari bilan izohlanadi. Bunday "bozor kamchiliklari" qatoriga tashqi samaralar, tabiiy monopoliyalar, axborot assimetriyasi va boshqa shunga o'xshash omillar kiradi. Shunday qilib, iqtisodiyotga davlat aralashuvi va davlat mulki miqdorini belgilash har bir davr va mamlakat uchun iqtisodiy erkinlik hamda iqtisodiy tartibga solish o'rtasidagi maqbul nisbatni topishga xizmat qiladi. Quyidagi amaliy omillar qishloq xo'jaligida davlat mulkining zarurligini belgilaydi:

Xususiy sektorning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda, bir tomondan, an'anaviy tarzda xususiy kapital

uchun qiziqish uyg'otmaydigan yoki tijorat jihatidan yetarli darajada daromad keltirmaydigan, biroq milliy xo'jalik uchun takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini belgilab beruvchi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Shuningdek, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha davlatning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi:

- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtiruvchi, ilmiy va kapital sig'imi yuqori, tavakkalchilik darajasi katta bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali mamlakatning jahon xo'jaligidagi raqobatbardoshligini mustahkamlash;
- ish o'rinlarini yaratish yoki saqlab qolish, mahsulotlarga nisbatan maqbul narxlarni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadida iqtisodiy jihatdan qoloq hududlarni rivojlantirish;
- milliy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, shu bilan birga aholining sog'lom va barqaror turmush tarzini qo'llab-quvvatlash;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi shartnomalar va kelishuvlarning ijrosini ta'minlash, zarur hollarda davlat kafolati berish.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida davlat mulkining mavjudligi ayrim g'arb davlatlaridagi xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan ko'proq samaradorlikka ega ekani kuzatiladi. Bu holatni faqat davlat mulkining qisqarishi yoki xarajatlarning oshishi bilan izohlab bo'lmaydi. Bizningcha, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish va yagona iqtisodiy makonni shakllantirish maqsadida iqtisodiyotda davlat mulki ulushini ma'lum nisbatlarda saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni talab etadi. Chunki sog'lom raqobat muhiti davlat monopoliyasi bilan mos kelmaydi, monopoliyaning mavjudligi esa erkin raqobatni cheklaydi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida davlat mulkining iqtisodiyotdagi hissasi kamayadi; u asta-sekin jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqarolar mulkiga va to'liq xususiy mulkka aylanishi kuzatiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidagi eng muhim vazifa davlat mulki monopolizmini tugatish va xususiylashtirish orqali ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida tarmoqda davlat mulki hissasi keskin kamaydi [4]. Ma'lumotlarga ko'ra:

davlat mulki ulushining eng jadal qisqarishi 1990-1994-yillarda kuzatilgan;

ushbu davrda deyarli barcha davlat xo'jaliklari jamoa va shirkat xo'jaliklariga aylantirildi;

natijada, davlat xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi 1991-yildagi 34,0 % dan 1996-yilda 2,2 % gacha kamaydi.

Islohotlarning keyingi bosqichlarida ham davlat mulkining qishloq xo'jaligidagi hissasi pasayishda davom etdi. Bu jarayon tarmoqdagi davlat korxonalari sonining sezilarli qisqarishida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi hukumati qishloq xo'jaligini rivojlantirishda navbatdagi muhim vazifalarni hisobga olgan holda, bugungi kunda ushbu sohada mavjud bir qator muammolarni bosqichma-bosqich hal etishni o'z zimmasiga olgan. Bu esa davlatning qishloq xo'jaligida asosiy islohotchi sifatidagi rolini yaqqol namoyon etadi. Hozirgi bosqichda hukumatning asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini yagona fan-texnika siyosati asosida modernizatsiya qilish va ularning izchil rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu juda muhim vazifa bo'lib, ilm-fan, samarali texnika va ilg'or texnologiyalar barcha yutuqlarning poydevorini tashkil etadi.

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash masalalari tarixan alohida e'tibor bilan qaralgan. Mintaqamizda ob-havo keskin o'zgaruvchan bo'lgani sababli go'sht, yog', sut, baliq, tuxum kabi mahsulotlar issiq havoda tez buziluvchi, sovuqda esa sabzavot va mevalar muzlab qoluvchi mahsulotlar qatoriga kiradi. Shu bois mahalliy aholining uzoq asrlik amaliy tajribasi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashning turli an'anaviy usullari shakllangan.

Xususan, mahsulotlarni yerga ko'mib yoki ilib saqlash, meva va sabzavotlardan qoqi tayyorlash, ozuqa sifatida ishlatiladigan mahsulotlarni quritish kabi usullar keng qo'llanilgan. Sabzavot, don, meva, go'sht, qazi va tuxumni ko'mib saqlash, poliz mahsulotlarini ilib osish, turli meva, qovun, pomidorlardan qoqi olish, uzum, rayhon, kashnich, jambil va qizil Qalampirni quritish amaliyotda keng tarqalgan saqlash usullaridan bo'lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muxammadiev J.N., Abdusalomov J.T., Nasimov X.M. Vajnost mikrokapsul dlya skrытiya vkusov i zapaxov veщestv. Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences, ISSN 2660-4159, pp. 336-338.
2. Khalatov A.A., Byerley A., Min S.K., Vinsent R. Application of Advanced Techniques to Study Fluid Flow and Heat Transfer Within and Downstream of a Single Dimple. Minsk: ITMO named after A.V. Lykov, 2021. - 20 p.
3. Normurodov S.N., Ziyadullayev I.N., Xoliqov S.O'., Abdullayev O'.A., Dilmurodov H.F. FSS-2025. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science, 1535 (2025) 012028. doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028 URL: https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028

4. Karimov K.A., Akhmedov A.Kh., Kushimov B.A., Yuldoshev B.Sh. Justification and Development of a New Technology and Design for Drying Seeds of Desert Fodder Plants. International Scientific Conference “CONMECHYDRO - 2020”, April 23-25, 2020, Tashkent, Uzbekistan, pp. 1-10.
5. Normurodov S.N. O‘zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqatni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligining roli. Agrobiznes ilmiy-amaliy elektron jurnali, № 6/2025, pp. 224-231. URL: https://agrobiznesjournal.uz/uz
6. Kushimov R.X., Ergashev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: Extremum Press, 2021.
7. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari. Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot, № 7/2025, pp. 463-467. URL: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
8. Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Toshkent, 2013.
9. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo‘jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish. Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot, № 6/2025, pp. 775-779. URL: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
10. Kovalenko S.B., Kozenko Z.N. Сельскохозяйственная кредитная кооперация. Moskva: Finansy i Statistika, 2022. - 446 s.
11. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida xarajatlarni boshqarish va hisobga olishning innovatsion usullari: menejment va buxgalteriyaning o‘zaro integratsiyasi. Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot, № 10/2025, pp. 742-747. URL: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
12. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning iqtisodiy va buxgalterlik jihatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnal, № 3/2025, pp. 159-162. URL: www.ooqxssrtxm.uz; https://t.me/agroiqtisodiyot
13. Normurodov S.N. Qishloq xo‘jaligida biznesni boshqarish. Agrobiznes ilmiy-amaliy elektron jurnali, № 2/2025, pp. 348-359. URL: https://agrobiznesjournal.uz/uz
14. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2023. - 267 b.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 12**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz